

**YURIK VA JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN MOL-  
MULK SOLIG'I BO'YICHA TAQDIM ETILGAN IMTIYOZLAR VA SOLIQ  
STAVKALARI.**

**PRIVILEGES AND TAX RATES PROVIDED ON PROPERTY TAX  
CHARGED FROM LEGAL AND INDIVIDUALS.**

**ЛЬГОТЫ И НАЛОГОВЫЕ СТАВКИ, ПРЕДОСТАВЛЯЕМЫЕ ПО  
НАЛОГУ НА ИМУЩЕСТВО, ВЗИМАЕМОМУ С ЮРИДИЧЕСКИХ И  
ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ.**

**Abdurashidov Abdusamad Abdurahmonovich**

Fan va texnologiyalar universiteti  
o'qituvchi (+998 33 344-97-61)

*Annotatsiya:* Maqolada O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi, soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar ko'rsatib o'tilgan. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari, taqdim etilgan imtiyozlar, mol-mulk solig'i bo'yicha 2024 - 2025 - yillardagi o'zgarish ko'rsatkichlari mualliflar tomonidan o'rganilgan.

*Abstract:* The article describes the changes introduced into the tax system and tax legislation of the Republic of Uzbekistan. The authors studied the property tax rates collected from legal entities and individuals, the benefits provided, and the indicators of changes in property tax in 2024-2025.

*Аннотация:* В статье рассмотрены изменения, внесенные в налоговую систему и налоговое законодательство Республики Узбекистан. Авторами изучены ставки налога на имущество, взимаемого с юридических и физических лиц, предоставляемые льготы, а также показатели изменения налога на имущество в 2024-2025 годах.

*Kalit so'zlar:* rezident, norezident, jami daromad, mulkiy daromadlar, soliq stavkalari, imtiyozlar, davlat byudjeti, mol-mulk solig'i.

**Kirish:** Maqolada ko'chmas mulkni mol-mulk solig'iga tortishda xalqaro standartlar asosida auditorlik tekshiruvini tashkil etish uslubiylati tahlil qilinadi. Dunyo tajribasidan foydalanib, Buyuk Britaniya, Irlandiya va Rossiya kabi davlatlarning ko'chmas mulk solig'iga doir mexanizmlari o'rganilgan. O'zbekiston sharoitida kadastr qiymatini bozor qiymatiga yaqinlashtirish, soliq bazasini aniqlash va soliqqa tortiladigan ko'chmas mulk obyektlarining to'liq ro'yxatini shakllantirish zarurati ta'kidlangan. Maqola 2025-yildan boshlab mol-mulk solig'i tizimida kiritilgan o'zgarishlar, soliq stavkalarining oshirilishi, qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish bo'yicha yangi imtiyozlar va ko'p qavatli sanoat binolari uchun soliq yengilliklarini ko'rib chiqadi. Ushbu o'zgarishlar soliq siyosatini takomillashtirish, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va ekologik tashabbuslarni rag'batlantirishga qaratilganligi xulosa qilingan.

**Adabiyotlar sharhi.** Iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha o'rganilgan tadqiqotlarga to'xtalib o'tsak. Liu Huaning (2015) ta'kidlashicha, mol-mulk solig'i solig'i to'g'ridan to'g'ri soliq sifatida, soliq salmog'i yuqori bo'lganligi sababli, rezidentlarning iste'mol xatti-harakatlariga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqladi. Gentry va Hubbard (2002) olib borgan ilmiy izlanishlari davomida tobora progressiv soliq ostida yuqori harakatchanlikka erishish ehtimolini o'rganishdi. Xususan, mualliflar yuqori soliq stavkalari va soliq stavkalarining progressivligini oshirish sharoitida yaxshiroq ishga o'tish ehtimolini o'rganib chiqdilar. Mualliflar iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosining soliq modellashtirish, jumladan, uy xo'jaligining kelajakdagi mumkin bo'lgan marjinal soliq stavkasi va soliq tizimining progressivligi o'zlarining soliq o'zgaruvchilari o'lchovlarini yaratish uchun foydalanishdi. Tadqiqot federal va shtat daromad solig'i to'lovlari bilan bir qatorda federal va shtat hukumatlarining turli marjinal daromad solig'i stavkalarini o'z ichiga oladi<sup>4</sup>. Tae-hwan Rhee (2012) ta'rifiga ko'ra mol-mulk solig'i progressivligi va yalpi ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib chiqdi. Muallifning tadqiqoti faqat

nazariyaning o'zi soliq tizimining progressivligi daromadlar tengligining oshishiga olib keladimi yoki yo'qligini aniqlay olmaydi, degan kuzatishi bilan turtki bo'ldi. Uning fikricha, bu masala, albatta, empirikdir, chunki munosabatlar boshqa narsalar qatori daromad taqsimoti, turli daromad guruhlari mehnat taklifining egiluvchanligi, migratsiya va tejash yoki iste'mol qilish moyilligiga bog'liq degan xulosaga kelgan. Eremenko (2019) ning dissertatsiya tadqiqotida daromadni soliqqa tortishda adolat tushunchasi va milliy soliq tizimini takomillashtirishga ta'sirini baholash kerak degan fikrni ilgari surgan. Weller and Rao (2010) olib borgan tadqiqotlari natijasida iqtisodiy barqarorlikni oshirishda mol-mulk solig'i siyosatining rolini baholadilar. Hartman (2002) O'yin nazariyasi tahlili asosida progressiv soliqqa tortish iqtisodiy samaradorlikni oshirishi mumkin bo'lgan mexanizmlarni o'rganishga harakat qildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, soliq stavkalarining progressiv tuzilishi kuchli manfaatdor guruhlar tomonidan ijaraga olish faoliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bundan tashqari, qog'oz progressiv soliqqa tortish iqtisodiy samaradorlikni oshiradigan ko'proq ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyatiga yordam berishi mumkinligini ko'rsatadi.

### **Soliq stavkalari:**

#### **Yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig'i stavkasi quyidagicha belgilangan.**

Soliq stavkasi, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, 1,5 foiz miqdorida belgilanadi.

Qurilishi normativ muddatda tugallanmagan obyektlarga nisbatan soliq stavkasi 3 foiz miqdorida belgilanadi.

Soliq stavkasi quyidagilarga nisbatan 0,65 foiz miqdorida belgilanadi:

1) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar;

2) konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan ko'chmas mulk va tugallanmagan qurilish obyektlari.

**Jismoniy shaxslar uchun mol-mulk solig'i stavkasi quyidagicha belgilangan.**

Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

| T/r | Soliq solish obyektlari                                                                                                                                                                                                                                                                  | Soliq stavkalari, foizlarda |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------|
| 1.  | Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo'lganlarini qo'shib hisoblaganda), ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar                                          | 0,34                        |
| 2.  | Shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiy maydoni:                                                                                                                                                                                                                         |                             |
|     | 200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo'lgan                                                                                                                                                                                                                                             | 0,45                        |
|     | 500 kv.m dan ortiq bo'lgan                                                                                                                                                                                                                                                               | 0,6                         |
| 3.  | Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari                                                                                                                                                           | 0,45                        |
| 4.  | Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlari | 1,5                         |

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan ro'yxatga olinmagan yangi qurilgan uy-joylarga nisbatan soliq stavkasi ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan taqdim etilgan axborot asosida mulkning shartli qiymatiga nisbatan ikki baravar miqdorida qo'llaniladi.

Hududlarning va faoliyat amalga oshiriladigan joylarning xususiyatlarini hisobga olgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari, viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari o'rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo'lgan oraliqdagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar belgilashga haqli.

Jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona turar joydan unda istiqomat qilish bilan bir vaqtda tovarlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) uchun foydalangan taqdirda, soliq ushbu modda birinchi qismining 1 — 3-bandlarida belgilangan soliq stavkalari bo'yicha to'lanadi.

Normativ muddatda qurilishi tugallanmagan yashash uchun mo'ljallanmagan obyektlarga nisbatan soliq stavkasi 3 foiz miqdorida belgilanadi.

### **Yuridik shaxslarga mol-mulk solig'idan berilgan imtiyozlar :**

Soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq bazasi quyidagilarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga (o'rtacha yillik qiymatiga) kamaytiriladi:

- 1) madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash (bundan turistik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort obyektlari mustasno), jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot obyektlarining;
- 2) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash uchun, shuningdek ipak qurti yetishtirish uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi korxonalari balansida bo'lgan mol-mulkning;
- 3) yangi neft va gaz quduqlarining — ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab ikki yil muddatga.

Ushbu modda birinchi qismining 3-bandida nazarda tutilgan yangi neft va gaz quduqlariga nisbatan soliq imtiyozlarining amal qilish muddati tugagandan keyin uch yil davomida belgilangan soliq stavkasining 50 foizga kamaytirilgan soliq stavkasi qo'llaniladi.

**Quyidagilar soliqdan ozod qilinadi:**

1) yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va xodimlarining umumiy sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan hamda nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash fondi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan yuridik shaxslar;

2) umumiy quvvati quyidagicha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari:

100 kVtgacha bo'lgan — qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari foydalanishga topshirilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga, quyosh panellarining quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam bo'lmagan quvvatga ega elektr energiyasini to'plash tizimi bilan quyosh panellari o'rnatilganda esa — ushbu panellar foydalanishga topshirilgan oydan e'tiboran o'n yil muddatga;

100 kVt va undan ortiq bo'lgan — ular foydalanishga topshirilgan oydan e'tiboran o'n yil muddatga;

3) qishloq joylarda joylashgan (bundan shaharlar va tumanlarning markazlari mustasno) antenna-machta metall konstruksiyalari, shu jumladan ularga o'rnatilgan hamda ularning ajralmas qismi bo'lgan konstruksiyalar;

Yangi qurilgan ko'p qavatli ishlab chiqarish binolari bo'yicha (bundan respublika shaharlarida, shuningdek Toshkent viloyatining Zangiota, Qibray va Toshkent tumanlarida joylashgan binolar mustasno) soliq to'lovchilar hisoblangan soliq summasini uch qavatli binoga nisbatan — 0,9, to'rt qavatli binoga — 0,8, besh qavatli binoga — 0,7, olti qavatli binoga — 0,6, yetti va undan yuqori qavatli binoga — 0,5 pasaytiruvchi koeffitsiyent qo'llanilgan holda, ushbu binolar foydalanishga

topshirilgan oydan e'tiboran uch yildan ko'p bo'lmagan muddatda to'laydi. Bunda ushbu qismda belgilangan pasaytiruvchi koeffitsiyent:

mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yordamchi xonalarni, xususan, ofis uchun va o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni realizatsiya qilish uchun xonalarni, tegishli kasbni egallash uchun tashkil etilgan o'quv-ishlab chiqarish xonalarini hisobga olgan holda, agar ularning maydoni yangi qurilgan ko'p qavatli ishlab chiqarish binosi umumiy maydonining 20 foizidan oshmasa;

### **Jismoniy shaxslarga mol-mulk solig'idan berilgan imtiyozlar :**

#### **Quyidagilarning mulkida bo'lgan mol-mulk soliq solishdan ozod etiladi:**

1) "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning.

Mazkur imtiyoz tegishincha "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonunchilik bilan belgilanadigan, ularga tenglashtirilgan shaxslar.

Ushbu imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, nogironligi bo'lgan boshqa shaxslarga (qatnashchilarga) nogironligi bo'lgan shaxsning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnomasi asosida beriladi.

3) sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoxud harbiy xizmatning yoki ichki ishlar organlaridagi va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasidagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya yoki mayib bo'lganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning hamda

ichki ishlar organlari va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimlarining ota-onalari hamda beva xotinlari (beva erlari).

Ushbu imtiyoz "Halok bo'lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)" yoki "Ichki ishlar organlari halok bo'lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)", "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi halok bo'lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)" shtampi qo'yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi.

Agar mazkur shaxslar pensioner bo'lmasa, soliq imtiyozi ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining tegishli organlari va harbiy xizmat nazarda tutilgan boshqa idoralar tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organlari va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimining halok bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma asosida beriladi.

Tegishincha sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasidagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yoki ichki ishlar organlari va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) soliq imtiyozi faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi.

5) yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar. Mazkur imtiyoz yetim bolalarga va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga davlat tomonidan ajratiladigan uy-joy uchun ular yigirma uch yoshga to'lguniga qadar amal qiladi.

Quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan mol-mulk oltmish kvadrat metr doirasida soliq solishdan ozod qilinadi:

- 1) o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ota-onalaridan birining. Mazkur imtiyoz fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi asosida beriladi;
- 2) pensionerlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;
- 3) I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

Uy-joy fondining ko'chmas mulk obyektlarida umumiy quvvati 100 kVtgacha bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar uchun soliq summasi qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari o'rnatilgan oydan e'tiboran uch yil davomida, quyosh panellari quvvatidan 25 foizdan kam bo'lmagan quvvatga ega elektr energiyasini to'plash tizimi mavjud bo'lgan quyosh panellari o'rnatilganda esa mazkur panellar foydalanishga topshirilgan oydan e'tiboran o'n yil davomida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan oshmaydigan summaga kamaytiriladi. Ushbu imtiyoz energiya ta'minoti tashkiloti tomonidan jismoniy shaxsning qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishi to'g'risida berilgan ma'lumotnomaga asosan uy-joy fondining bitta ko'chmas mulk obyektiga nisbatan faqat bir marotaba taqdim etiladi va jismoniy shaxs tomonidan umumiy quvvati 1 kVtdan ortiq bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari o'rnatilgan taqdirda qo'llaniladi.

Soliq kodeksida ko'rsatib o'tilgan soliq imtiyozlariga ega bo'lgan shaxslar soliq imtiyozini olishga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni soliq solish obyekti joylashgan yerdagi soliq organlariga mustaqil ravishda taqdim etadi.

#### **Soliq to'lovchilar va obyektlar**

- **Mol-mulk solig'i to'lovchilari:** 6,9 mln nafar
- **Yer solig'i to'lovchilari:** 5,8 mln nafar

• **Jami obyektlar:** 8,3 mlnta (shu jumladan, turar-joy - 7,9 mlnta, noturar-joy - 374 mingta)

### **Soliq to'lov xabarnomalarining taqdim etilishi**

Soliq to'lovchilarga to'lov xabarnomalari har yili **1-martga qadar** quyidagi tarzda yetkaziladi:

- Imzo qo'ydirilgan holda shaxsan topshirish orqali;
- Soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron tarzda;
- Soliq to'lovchining uyali telefon raqamiga SMS-xabarnoma orqali;
- Soliq organlarining maxsus mobil ilovasi orqali. Ma'lumot uchun, joriy yilda chop etilgan to'lov xabarnomalari soni **6,2 mlntani** tashkil etadi.

### **Soliq hisoblab chiqarish**

Kadastr organlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida jismoniy shaxslarga qariyb **7 trln so'm** miqdorida soliqlar hisoblangan. Shundan:

- **mol-mulk solig'i:** 2,9 trln so'm
- **yer solig'i:** 4,3 trln so'm

### **Soliq imtiyozlari**

Jismoniy shaxslarga beriladigan imtiyozlar Soliq kodeksining **421 va 436-moddalari** asosida belgilangan.

**Xulosa:** Mol-mulk soliqlarini o'z vaqtida to'lash jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu qo'llanmada siz to'lov muddatlari, to'lov usullari (onlayn va an'anaviy), zarur hujjatlar hamda mavjud imtiyozlar haqida to'liq ma'lumot topasiz. 2025-yilgi soliq qonunchiligidagi ayrim o'zgarishlarga qaramay, to'lov jarayoni hanuz oddiy va tushunarli bo'lib qolmoqda. O'zbekistonda ko'chmas mulk egalariga mol-mulk solig'ini belgilangan muddatlarda to'lash zarurligini

yodda tutish tavsiya etiladi. Odatda to'lov yil davomida ikki teng bo'lakda amalga oshiriladi. Birinchi to'lovni 15-apreldan kechiktirmay to'lash lozim, ikkinchi to'lov esa joriy yilning 15-oktabrigacha amalga oshirilishi kerak. Soliq majburiyatlarini oldindan hal qilishni afzal ko'radiganlar uchun butun soliq summasini bitta to'lov bilan 15-aprelgacha to'lash imkoniyati mavjud.

Soliq organlari odatda to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi haqida ogohlantirish xatlarini 1-martgacha yuboradi. Bu ogohlantirishlar sizning Davlat soliq qo'mitasi veb-saytidagi shaxsiy kabinetigizda mavjud bo'lishi, ro'yxatdan o'tgan telefon raqamingizga SMS-xabar ko'rinishida yuborilishi yoki SoliqUz mobil ilovasi orqali yetkazilishi mumkin.

#### Adabiyotlar/Литература/Reference:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019 y.
2. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. Darslik. - T.: "Akademiya", 2011. - 472 b.
3. Ungboyevich, M. O. K. (2024). APPLICATION OF DIGITAL PLATFORMS IN THE STATISTICAL SYSTEM BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCE. European Journal of Economics, Finance and Business Development, 2(7), 16-23.
4. Ungboyevich, M. O. (2024). RESEARCH ON IMPROVING THE EFFICIENCY OF DIGITAL PLATFORMS IN THE STATISTICAL SYSTEM. Synergy: Cross-Disciplinary Journal of Digital Investigation (2995 4827), 2(9), 4-8.
5. Kaširina M.V. Aktual'nye problemy nalogooblojeniya akcizami // Nalogi i nalogooblojenie. - 2016. - №6. - S. 452-459.
6. Cemerjinskaâ A.V. Soveršenstvovanie akciznoj politiki Rossijskoj Federacii // Nalogi i nalogooblojenie. - 2018. - №5. - S. 1-8.

7. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. <https://lex.uz/docs/4674902> 8. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrdaqi "Soliq va byudjet siyosatining 2023 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish <https://lex.uz/docs/6333227> 9. to'g'risida"gi O'RQ-812-sonli qonuni. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy sayti. <https://soliq.uz> 10. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti. <https://www.mf.uz> 11. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrdaqi "2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-813-sonli qonuni. <https://lex.uz/docs/6333286>